

Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich

Assistent

Nasirov Ilxam Zakirovich

Professor, t.f.n. Andijon mashinasozlik instituti

Bo'ylama profil odatda ko'chaning o'qi asosida yasaladi. Bunda muhandislik kommunikatsiyalari va o'zaro kesishuvlarini bog'lash oson bo'ladi, ammo xususiy hollarda ariq bo'ylab (agar ko'chaning ko'ndalang kesimlarida nomutanosib bo'lsa yoki tramvay yo'li relsi mavjud bo'lsa) va bir necha qatnov yo'lagidan iborat ko'chaning elementlari balandlik sathlari har xil bo'lsa, unda bir necha bo'ylama profil quriladi. Ko'ndalang profillar bo'ylama o'qiga nisbatan perpendikulyar holda va ko'chalar bir-biri bilan kesishish joylarida, shuningdek mikrorayonga kirish joylarida yoki tuproq hajmi bir-biridan katta farq qiladigan joylarda quriladi [1-5].

Profillarni qurishda pastlik va balandliklar dastlabki ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Bo'ylama va ko'ndalang profillarda muhandislik kommunikatsiyalarini, transport va temir yo'llarni, tonnellarni, elektr tarmoqlari va yo'l-transport inshootlarini borligini ko'rsatishning ahamiyati juda kattadir. Bo'ylama profilni qurayotganda quyidagi shartlarga amal qilish talab qilinadi [6-10]:

- 1) Ko'chalarning toifasiga qarab, ularning bo'ylama nishablarini tanlash.
- 2) Tuproq ishlari hajmini kamaytirishga intilish.
- 3) Chuqurliklarda kerakli bo'lgan muhandislik kommunikatsiyalarini loyihalash.
- 4) Tuproqni surayotganda tabiiy nishabni imkon qadar saqlash.
- 5) Sinuvchi loyiha nishablarini iloji boricha 50-100 metrdan kam qilmaslik.

Qabariq shaklli profillar haydovchi uchun yo'lning oldingi qismini ko'rishni qiyinlashtiradi. Botiq siniqlarda esa markazdan qochma kuch ta'sirida avtomobil resorlarida zo'riqish paydo bo'lib, ularga og'irlik tushadi.

Harakatning xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli masofada to'g'ri loyiha chizig'i orqali egri chiziqlar (qovariq yoki botiq) birlashtiriladi. Uning radiusi belgilangan harakat tezligiga bog'liq. Yo'l harakati uchun qanchalik katta tezlik belgilangan bo'lsa, egrilik radiusi shunchalik katta bo'lishi lozim.

Uzluksiz tezlikdagi yo'lning 400 metrlikdan katta bo'lgan egrilik radiusini ifodalashning imkoniyati bo'lmagan taqdirda viraj usuli qo'llaniladi. Viraj – bu ko'cha qatnov qismining bir tomonga qiyalik shaklida markazga qarab yo'naltirilgan gorizontal egrilik tushuniladi (15.4-rasm). Ko'chaning ushbu qismi ikki tomonga yo'naltirilgan qiyalik o'rniga bir tomonga yo'naltirilgan qiyalikka o'tkazish joyida amalga oshiriladi. Bunda ko'chadagi hisobiy tezlik 2 dan 6% gacha, ko'cha qoplamasining muzlashini inobatga olib, qiyalik 4% dan oshmasligi belgilab qo'yiladi [11-18].

Ko'chaning tekislik qismida, ya'ni qiyaliksiz sharoitda (0.004 dan kam bo'lganda) ko'chaning qatnov qismi arra shakldagi profil usul bo'yicha rejalashtiriladi.

Chorrahalarini vertikal rejalashtirish kesishadigan ko'chalarning ahamiyatiga va toifasiga hamda bo'ylama nishabliklarning yo'nalishiga bog'liq. Kesishadigan ko'chalar qatnov qismi o'qining belgilari yo kesishadigan ko'chalar o'qining belgilari yoki kesishadigan ko'chalar novlarining belgilari bilan tutashishi mumkin. Magistr ko'chalarda ko'ndalang novlar qilish yaramaydi. Chorrahalarini vertikal rejalashtirishdan maqsad transport va piyodalar harakati uchun xavfsizlikni ta'minlash hamda oqova suvlarning oqib ketishi uchun imkon to'g'irishdir. Uning uchun quyidagi omillarni inobatga olish talab qilinadi [19-23]:

- har xil toifadagi ko'chalar kesishish joyida bosh ko'chaning o'qi bo'yicha nishablikni saqlab qolish;

- bir xil toifadagi ko'chalar kesishishida katta nishablikka ega bo'lgan kesuvchi ko'chani asosiy qilib olish yoki ikkalasini ham bir yonli ko'ndalang profilga aylantirish;

- qaysi ko'chadan tramvay yo'li o'tsa, o'sha bosh ko'cha deb hisoblanadi, qolgan barcha ko'chalarning elementlari va ikkinchi ko'cha shunga asoslanib olinadi;

- magistr ko'chani ko'ndalang kesib o'tuvchi quvurlar ishonchligini ta'minlash.

Asosiy ko'cha bilan ikkinchi darajali ko'cha kesishuvida ularning har ikkala yon profili bir yonliga aylantiriladi va ularning uzunligi imkon qadar qisqartiriladi. Odatda ko'cha profilining shakli bir yonliga yoki aksincha bo'lganda ko'tarilish nishabligi umumiy bo'ylama nishablikdan qat'iy nazar 10 % qabul qilinib, quyidagi ifoda bilan hisoblanadi.

Bu erda V – ko'chaning eni, m; α - ko'chaning ko'ndalang nishabligi, %.

Ushbu tadqiqot davomida magistr ko'chalarda ko'ndalang novlar qilish yaramaydi. Chorrahalarini vertikal rejalashtirishdan maqsad transport va piyodalar harakati uchun xavfsizlikni ta'minlash hamda oqova suvlarning oqib ketishi uchun imkon to'g'irishdir. Uning uchun quyidagi omillarni inobatga olish talab qilinadi [24-27].

Ko'cha yo'llardagi harakatlangan avtomobillarning qatnov vaqtida harakati yo'lning vertikan qiyaliklari va tekisliklari boylab yaxshi xarakatlanadi. Turli xil sharoitdan kelib chiqib ko'chalarning qiyaliklar avtomobil qatnov jarayonida yomg'ir qor va boshqa noqulay sharoitda ham ravon yurishini taminlaydi bu esa trbantliklarni ham kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шодмонов С. А., Ортиқов С. С., Abdiraxmonov R.A International jurnal for innovative Enjineering and Management Research Хиндистон Hyderabad 2021 THE RESULTS OF LOBORATORY STUDIES CONDUCTED TO DEVELOP THE TECHNOLOGIY OF RESTOROTION OF SHAFTS March-2021, Volume 10, Issue 03, Pages: 402-404. <https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3> 3 0.33 ball

2. Шодмонов С. А., G'ulomov F., 3 STEPS TO TRANSPORT DANGEROUS GOODS IN UZBEKISTAN Естественнаучный журнал «Точная наука» Россия 2021 06 декабря 2021 г. Pages: 14-16. [bet www.t-nauka.ru](http://www.t-nauka.ru)

3. Shodmonov, S. A., & qizi Turg'unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 61-66.
4. Насиров Ильхам Закирович. (2022). МУСТАХИЛ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ШАКЛЛАРИ. Конференц-зона , 327–332. Получено с <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/867>
5. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 4(97). RL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416> (дата обращения:19.12.2022)
6. Hakimov M.S. Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. (2023). Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589-359 <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>
7. Насиров Илхам Закирович. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ . Journal of New Century Innovations, 21(4), 118–121. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3069>
8. Zakirovich, N. I. ., & Mahammadovna , S. I. . (2023). LEVELS OF DEVELOPMENT OF HUMAN ABILITIES. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 341–344. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5245>
9. Закирович, Н. И. ., Жалолиддин ўғли, А. С. ., & Тухтасиновна, К. Д. . (2023). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОТХОДОВ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 345–351. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/5247>
10. Nasirov I.Z. Intellektual transport tizimlari. Darslik. ISBN 978-9910-799-39-6. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 227 b.
11. Nasirov I.Z. Transport vositalarining bort axborot tizimlari. Darslik. ISBN: 978-9910-08-049-4. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 140 b.
12. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.
13. Rustamjon o'g, T. R. H. (2023). METHODOLOGY OF FACTORS AFFECTING THE PRIORITY OF PUBLIC TRANSPORT IN ANDIJAN CITY IN THE EXAMPLE OF BUS DIRECTION NUMBER 21. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(11).
14. Toraboev, X. (2024). TWO OF BABUR SHAH STREET IN ANDIJAN CITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING THE PART SIGNIFICANCE. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(6), 231-237.

15. Turaboyev, K., & Mahmudjanov, B. (2023). CONDUCTIVITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING TWO PARTS OF BOBUR AVENUE IN ANDIJAN CITY. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 103-106.
16. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.
17. Nasirov Ilxam Zakirovich, & Akromjonova Sayyoraxon Baxtiyor qizi. (2023). YO'L BOSHQARUVINI INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH . *Journal of New Century Innovations*, 21(4), 122–127. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3070>
18. Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich, & Nasirov Ilxam Zakirovich. (2023). YANGI O'LCHOVLARDA EVROPA XAVFSIZLIGI. EVROPA ITTIFOQIDA YASHIL KELISHUV ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 935–942. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13051>
19. Murodjon o'g'li, E. B., & Farhod o'g'li, I. S. (2023). SHAHAR YO 'LLARINI JIHOZLASHDA ME'YORIY TALABLARGA MOSLIGINI O 'RGANISH VA TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 47-50.
20. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li. (2023). O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SEKTORINING ZAMONAVIY XOLATI VA UNING RIVOJLANISH DARAJASI. *Scientific Impulse*, 2(15),904–911. Retrieved from <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/13047>
21. Esonboyev Behzodbek Murodjon o'g'li, Valiyeva Mufazzalxon Kazimjanovna, & Yulbasova Navruzaxon Abduraxmonovna. (2023). Patentlash ma'lumotlarini tayyorlash va patetlashga izlash ishlarini olib borish . *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 243-248. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/105>
22. Насиров, И. З. (2023). ИНСОН ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ДАРАЖАЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(4), 118-121.
23. Насиров, И. З. (2023). КАФЕДРАДАГИ ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOG*, 6(2), 299-302.
24. Nasirov , I. (2023). CONDUCTING LESSONS IN THE "MENTAL ATTACK" METHOD. *International Conference On Higer Education Teaching*, 1(1), 86-89. Retieved from <https://aidlix.comphp/aeticle/view/90>
25. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o'g'li. (2023). LOGISTIKA TIZIMING TRANSPORT TOSHQIL ETUVCHISI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 7 (7), 27–33. <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/546> dan olindi.
26. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhammadov Jamshidbek Sohibjon o'g'li. (2023). TRANSPORTDA LOGISTIKA XARAJATLARINI VA TARIFLARINI

SHAKLLANTIRISH. BUTUN DUNYO ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI , 2 (2), 106-114. <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/543> dan olindi

27. Rafuqjon, R., & Rahimov, O. L. (2022). Avtomobil Transportida Tashuv Ishlarini Amalga Oshirishda Harakat Xavfsizligini Ta'minlash Uslublarini Takomillashtirish Yo'llari. Образование И Наука В Хxi Веке, 750-754.